

“Farhod va Shirin” dostonlarida janrlar takomili

Ruzmetov Shahzodbek¹

Abstrakt

Mumtoz adabiyotimizda poetika ilmi alohida ahamiyatga ega bo'lib, tahlil va talqinning asosiy obyekti sifatida salmoqli o'rin egallaydi. Ushbu maqolada turkiy adabiyotda mavjud ikki yirik asar – Alisher Navoiy va Lamii Chalabiylarning “Farhod va Shirin” dostonlari qiyoslanilgan. Farhod obrazining genezisi, navoiyshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlar borasida olimlarning fikrlari o'rganilib, tahlil qilingan. Shaki jihatidan Navoiy masnaviysidan farq qiluvchi Usmonli turk shoiri Lamii Chalabiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi lirik janrlar xususida so'z yuritilib, vazn va shakl nuqtayi nazaridan farqli o'rinlar tahlilga tortilgan. Qiyoslar natijasida dostonlarning kompozitsiyasiga xos xususiyatlar, qahramonlar tasviri, voqealar ifodasida she'r navlarining o'ziga xosligi masalalari ochib berilgan. Har ikki ijodkorning mavzuga yondashishdagi o'xshash va farqli tomonlari aniqlanilgan. Badiiy mahorat masalasi, asar arxitektonikasi hamda hajm nuqtayi nazaridan ijodkorlar ijodi qiyosiy o'rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *poetika, vazn, genezis, syujet, obraz, lirik janr, kompozitsiya, ramal, hazaj, mujtass, muzori, hasbi hol, qasida, g'azal, tarji'band, tarkibband.*

Kirish

Sharq mumtoz poetik tahlilida adabiy tur va janrlar asosiy obyekti bo'lib, nazm va nasr yo'nalishida yaratilgan badiiy asarlar, ulardagi janrlar takomili masalasi shoirlarning poetik mahoratidan darak beruvchi belgi sifatida ahamiyatlidir. Xususan, ishqiy mavzudagi dostonlarda mavzu va ritm, janrlar masalasi, sayyor syujet va g'oyalarning ifodalanishi mavzu doirasiga ko'ra salmoqli o'rin egallab, bu turkumga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostonini sharq adabiyotida mavjud Farhod qissalari bilan qiyosiy o'rganish komil inson sifatida gavdalanuvchi Farhod obrazining rivojlanish tadriji-

¹ Ruzmetov Shahzodbek Ulug'bekovich – Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

E-mail: Shahruzmetov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-1277-7283

Iqtibos uchun: Ruzmetov, Sh. 2024. “Farhod va Shirin” dostonlarida janrlar takomili. O'zbekiston: til va madaniyat”. 1(2): 138-151.

ni kuzatish nuqtayi nazaridan, ayniqsa, muhimdir. H. Arasli o‘zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari mavzusida olib borgan tadqiqot ishlarida shu masalaga alohida ahamiyat beradi. H. Arasli “Farhod va Shirin” haqida fikr yuritib, Navoiy dostoniga asos bo‘lgan manbalar qatorida XIV asr ozarbayjon shoiri Orif Ardabiliy yaratgan “Farhodnoma” asarini ham sanab o‘tadi. Shuningdek, “Xusrav va Shirin” tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki ishlardan yana biri sifatida chex sharqshunosi G.Duda tomonidan yaratilgan kattagina monografiyani ko‘rsatish mumkin. Said Nafisiy, Ali Asg‘ar Hikmat kabi Eron adabiyotshunoslarining asarlarida ham “Farhod va Shirin” qissasi va uning tarixi haqidagi fikrlar mavjud. Chet el sharqshunosligida “Farhod va Shirin” yoki “Xusrav va Shirin” to‘g‘risidagi qayd va mulohazalar to‘g‘risida so‘z borar ekan, dastlab turk adabiyotshunosi Ogah Sirri Levendning Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarini nazarga olish lozim. Milliy navoiyshunosligimizda esa “Farhod va Shirin” dostoni bo‘yicha professor Sodirxon Erkinov tadqiqot olib borgan bo‘lsalar, u kishi o‘z tadqiqotlarida aynan Lamii Chalabiyning asarini topa olmagan va Ogah Sirri Levendning katologidagi manbalardan foydalanganligini aytadi. Usmonli turk adabiyoti va bugungi kun navoiyshunosligi nuqtayi nazridan bu ikkala dostonni tahlilga tortish, undagi lirik janrlarga munosabat bildirish fanning yangi qirralarini kashf etish uchun asos vazifasini bajaradi.

Asosiy qism

Lamii Chalabiyning “Farhod va Shirin” dostoni shoir ijodining cho‘qqisi bo‘lib, u haqida qardosh olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq mazkur ilmiy ishlarda Alisher Navoiy va Lamii Chalabiyning “Farhod va Shirin” dostonlari qiyosiy tahlil etilgan emas. Usmonli turk shoiri Lamii Chalabi Navoiydan “Farhod va Shirin” dostonini tarjima qilar ekan, unda an‘anaviy mavzu, syujetni saqlab qolgan holatda kompozitsiyaga o‘zgartirishlar kiritgan. Shoir dastlab asarni Navoiy darajasida yoza olmasligini aytgan, biroq shoir 16 oy davomida Anado‘li turkchasida “Ferhad ile Shirin” masnaviysini yozib tugatgan. Asar Navoiydan tarjima shaklida bitilgan bo‘lsa ham kompozitsiya, janr va vaznda individuallik holatlarining mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik. Misol uchun, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni hazaji musaddasi mahzuf (ruknlari va taqti’: mafoiylun mafoiylun fauvlun V — — — /V — — — / V — —) vaznida yozilgan, 54 bob, 5782 baytdan iborat. [Sirojiddinov, 2018, 103] Lamiyning dostoni Navoiynikidan baytlar hajmiga ko‘ra

2365 bayt ko'proq bo'lib, umumiy 54 bob, 8157 baytni tashkil qiladi. Navoiydan farqli ravishda Lamii Chalabiyda doston vaznlari aralash holatda kelgan. Hazaj, ramal, muzori' va mujtass bahrlari barobar qo'llanilgan. Dostonda qasida, g'azal, tarji'band, tarkibband janrlarini kuzatish mumkin. Asar garchand hazaj bahrida yozilgan bo'lsa ham ichidagi lirik janrlarda ramali musammani mahzuf (ruknlari va taqti': foilotun, foilotun, foilotun, foilun — V— —/—V— —/—V— —/—V—), mujtassi musammani maxbuni mahzuf (ruknlari va taqti': mafoilun failotun mafoilun failun V—V—/VV— —/ V—V—/ VV—), muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf (— —V/—V—V / V— —V—/V—), muzoriyi musammmani axrab (— —V/—V— — / — —V/—V— —) vaznlarida bitilgan. Asar shaklan musaddas ko'rinishda ifodalansa-da, shoir o'z ijodida individuallikka intilib, asarda musamman shaklidan ham foydalangan, bu qasida, g'azal janrlarida namoyon bo'ladi.

Doston tarkibida uchrovchi qasida janri Sharq adabiyotida dastlab paydo bo'lgan she'r shakllaridan biri bo'lib, u arabcha "maqsad", "niyat" ma'nolarini bildiradi. Qasida biror tarixiy shaxs, hukmdor yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli she'r turi hisoblanib, qasidalar hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin. Qasida janridan g'azal janri o'sib chiqqanligi tufayli ularning qofiyalanishi bir xil bo'lib, g'azal singari a-a, b-a, d-a, e-a ... tarzidadir. Ayrim hollarda masnaviy ko'rinishida ham qofiyalanishi mumkin. Qasida tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Qasidai tom (to'liq qasida) – bunda qasida to'rt qismdan tarkib topadi:

a) nasib – lirik kirish (tabiat tasviri);

b) gurizgoh – nasib bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytdan tashkil topuvchi qism;

s) madh – asosiy qism;

d) qasd – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilgan qism.

2. Qasidai mujarrada (chala qasida) – bunda faqat madh keltiriladi.

Qasidalar mavzusiga ko'ra vasf, madh, hajv, marsiya, munojot va falsafiy qasidalarga bo'linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida "Devonu lug'otit turk"da "qo'nug'" shaklida uchraydi. [Sirojiddinov, 2018, 317]

Dostonda keltirilgan dastlabki qasida I bobda keltirilganligi uchun hamd xarakteriga ega. 26 bayt, 52 misrani tashkil qiluvchi qasida tuzilishiga ko'ra qasidai mujarrada shaklida. Qofiyalanishi

a-a, a-a, a-a, a-b, d-a, e-a ko‘rinishida bo‘lib, ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

Ey kemâl-i sun‘ina eşkâl-i ‘âlem ‘ayn-ı dâl
— V— —/—V— —/—V— —/—V—
Hatt-i dest-i kudretünden nakş-ı âdem bir misâl
— V— —/—V— —/—V— —/—V—
Midhatungde andalib-i natika mebhuti lal
— V— —/—V— —/—V— —/—V—
Fikretungde Shah-baz-i akile bi perr u bal
— V— —/—V— —/—V— —/—V—

Dostonning ikkinchi bobida keltirilgan keyingi 29 bayt, 58 misrani tashkil qiluvchi qasida ham qasidai mujarrada shaklida bo‘lib, hamd xarakteriga ega. Ahamiyatli jihati shundaki, ushbu qasidaning so‘nggiga qadar shoir qofiyalanib keluvchi ikkinchi misrada “Kalimayi shahodat”ni qo‘llaydi. Qasida g‘azal kabi a-a, b-a, d-a ... ko‘rinishida qofiyalanib, mujtass bahrining mujtassi musammani maxbuni mahzuf vaznida yozilgan.

Cihân u câna pür oldı ol iy göñül âgâh
V—V—/VV— —/ V—V—/VV—
Nidâ-yı eşhedü en lâ-ilâhe ille’llâh
V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Dostonning VI bobi payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, undan so‘ng 76 bayt, 152 misrani tashkil qiluvchi qasidai tom keltirilgan. Qasidaning dastlabki 4 bayti arabiy so‘zlardan iborat bo‘lib, keyingi baytlar turkiyda keltiriladi. Qasida mulamma san‘ati asosiga qurilgan, nafaqat dastlabki 8 misra, balki qasidaning keyingi o‘rinlarida ham arabiy so‘zlarga duch kelishimiz mumkin. Qasida a-a, b-a, d-a ... ko‘rinishida qofiyalanib, muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan.

Mihmân-ı sadr-ı suffe -imi’râc -ı Rûh-ı
— —V/—V—V / V— —V—/V—
Kuds Sultân -ı çâr - bâliş -i eyvân -ı kibriyâ
— —V/—V—V / V— —V—/V—
Namuñla buldı cümle cih ân ‘izzet ü şeref
— —V/—V—V / V— —V—/V—
Ahmed ü Muhammed ü Mahmûd u Mustafâ
— —V/—V—V / V— —V—/V—

Lamii asaridagi keyingi qasida IX bobdan o‘rin olgan bo‘lib, hukmdor Yovuz Sulton Selim I ga bag‘ishlangan. Qasida 60 bayt, 120 misrani tashkil qiladi. Qasidai tom xarakteriga ega ushbu qasida muzoriyi musammmani axrab vaznida yozilgan.

Medhūy iderken iy şâh bu şî'r -i hûb u dil – hâh

— —V/—V— — / — —V/—V— —

Hâtifden oldı nâgâh âşufte gönle mülhem

— —V/—V— — / — —V/—V— —

Doston tarkibida keluvchi keying janr bu g'azal janridir. Lamiining dostoni tarkibida 10 ta g'azalga duch kelamiz.

Ma'lumki, g'azal arabchadan olingan bo'lib, "ayollarga oshiqona so'z", "ishq izhor qilish" ma'nolarini bildirib, a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanuvchi, 3 baytdan 19 baytgacha hajmda bo'lgan baytli she'r shaklidir. Adabiyotshunoslikda g'azal janri haqida ilk ma'lumot Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam" asarida (XIII asr) keltirilgan. Olim bunda g'azalning asosiy lug'aviy ma'nosi ayollarga muhabbat qo'yish bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratadi. O'zbek adabiyotida 5-10 baytli g'azallar ko'p uchraydi.

"G'azalning birinchi bayti matla' yoki mabda', oxirgi bayti esa maqta' deb ataladi va maqta'da shoir taxallusi qo'llaniladi. Agar ikkinchi bayt ham matla' singari qofiyalansa, ya'ni g'azal qo'sh matla'ga ega bo'lsa, "husni matla'" yoki "zebi matla'"li g'azal deb ataladi. G'azalning dastlabki namunolari VIII–IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Ro'dakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan (1353–1354) boshlanadi. G'azallarni mavzusiga ko'ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Hamd g'azallar.
2. Na't g'azallar.
3. Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g'azallar.
4. Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g'azallar.
5. Axloqiy-ta'limiy mavzudagi g'azallar.
6. Ijtimoiy mavzudagi g'azallar.
7. Rindona g'azallar.
8. Tabiat tasviri aks etgan g'azallar.
9. Hajviy mavzudagi g'azallar.

Aslida, bunday tasnif nisbiy bo'lib, ba'zan Alisher Navoiyning ishqiy mavzudagi g'azallari tarkibida (ko'pincha maqta'dan oldingi baytda) ijtimoiy masalalar bilan bog'liq baytlar, tabiat tasviri aks etgan g'azallarida yor tasviri va h.k. mazmunidagi baytlarni ham kuza-tish mumkin". [Sirojiddinov, 2018, 293]

Lamii dostonining XXVII bobi Farhodning ishq o'tini yashira olmagan haqida bo'lib, mavzu Navoiy bilan bir xil, lekin turk shoiri

bu o‘rinda 7 baytli musamman ko‘rinishida g‘azal keltirgan. Ushbu g‘azal muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf (— —V/—V—V / V— —V—/—V—) vaznida yozilgan. Shoir garchand hazaj bahridan chekingan bo‘lsa ham shunisi ahamiyatliki, muzori bahri hazajni eslatadi, ya‘ni birinchi va uchinchi ruknda hazaj vazni rukni, ikkinchi va to‘rtinchi juft misralarda ramal bahri vaznlari ko‘zga tashlanadi. G‘azal “do‘st” radifi bilan keladi.

Kıldı tecellî cânuma bir kez cemâl dûst

— —V/—V—V / V— —V—/—V—

Yıllar durur gözümde uçar uş hayâl-i dust...

— —V/—V—V / V— —V—/—V—

Virmez kimesne gerçi o cânndan nişâne hîç

— —V/—V—V / V— —V—/—V—

Gitmez velî gönülden ümîz-i visâl-i dust

— —V/—V—V / V— —V—/—V—

Ushbu lirik parcha masnaviy tarkibida g‘azal sifatida kelsa ham yuqorida ko‘rganingizdek maqta‘da shoir taxallusi keltirilmaydi.

Doston tarkibidagi keying g‘azal XXIX bobda keltirilgan. Farhodning Yaman yurtiga borgani va Shopur bilan do‘st tutingani tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, 14 misra, 7 baytni tashkil qiluvchi ushbu g‘azal ramali musammani maxbuni mahzuf (V V — —/ V V — —/ V V — —/ V V — —) vaznida yozilgan.

Tutalum mey gönül açar leb-i dilber yirine,

V V — —/ V V — —/ V V — —/ V V — —

Bize cân mı virür ol bûse-i şekker yirine...

V V — —/ V V — —/ V V — —/ V V — —

Dil-i zârum gibi ger badiye-i gamda kalam,

V V — —/ V V — —/ V V — —/ V V — —

Döşenem hâr-ı mugaylânunı pister yirine.

V V — —/ V V — —/ V V — —/ V V — —

Yetti baytni tashkil qilgan bu g‘azal masnaviy tarkibida g‘azal sifatida uchrasa-da yuqorida ko‘rganingizdek maqta‘da shoir taxallusi keltirilmaydi. Shoir g‘azalga taxallussiz yakun yasab, g‘azal shaklini ham o‘zgartirgan.

Doston tarkibida keluvchi keyingi g‘azal XXXI bobda bo‘lib, ushbu bob Farhodning tog‘dagi toshlarni yakson qilishi, Shirin bilan uchrashuv va hushdan ayrilish voqeasiga bag‘ishlanadi. Shoir bu o‘rinda ham 14 misra, 7 baytlik “Yitar” radifli g‘azalini keltirgan bo‘lib, muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf (— —V/—V—V / V— —V—/—V—) vaznidan foydalangan.

İy mâh-ı hüsn cânuma mihrüñ ziyâ yiter

— —V/—V—V / V— —V—/—V—

Hâküm zer itmege nazaruñ kîmiyâ yiter

— —V/—V—V / V— —V—/—V—

Bu gʻazal ham yuqoridagilari kabi maqtaʼsiz keltirilgan.

XXXIV bobda keltirilgan keyingi gʻazal ham 7 baytni tashkil qiluvchi “Gelur” radifli gʻazalidir. Bu bob “Bahr un-najot” hovuziga suv ochilgani, Farhod Shirin va uning otini koʻtarib ariqdan oʻtkazib qoʻygani bayoni haqida boʻlib, undagi gʻazal ramali musammani maxbuni mahzuf (V V — — / V V — — / V V — — / V V —) vaznida yozilgan.

Yine açıldı cihân şol gül-i ra'nâ mı gelür

V V — — / V V — — / V V — — / V V —

Segrişür gözlerüm ol nerges-i şehlâ mı gelür

V V — — / V V — — / V V — — / V V —

Bu gʻazal vazni ham boshqalari singari qaytalanuvchi xarakterda boʻlib, maqtaʼda taxallus keltirilmagan.

Lamii dostonida keltirilgan beshinchi gʻazal masnaviyning XXXV bobidan joy olgan, bu bob Mehinbonuning Farhod sharafiga ziyofat bergani, Shirin qoʻlidan may ichgan Farhodning hushdan ayrilishi bayoniga bagʻishlangan. Bu bobda boshqalaridan farqli oʻlaroq ikkita gʻazal oʻrin egallagan boʻlib, dastlabki gʻazal 7 baytni tashkil etib, bu hazaji musammani solim (V — — — / V — — — / V — — — / V — — —) vaznida yozilgan.

Sunaldan sâkî-i ʻışkuñ baña câm-ı gam-efzâyı

V — — — / V — — — / V — — — / V — — —

Bugün bezm-i cihân içre benem şeydâ vü rüsvâyî

V — — — / V — — — / V — — — / V — — —

Gʻazal uchun ishqi mavzudagi dostonlarga moʻljallangan hazaj bahrining musammani solim shaklidan foydalanilgan. Lekin avvalgilari singari bu gʻazalda ham maqtaʼda taxallusiga duch kelmaymiz.

Oʻttiz beshinchi bobda keltirilgan ikkinchi gʻazal ramal bahrining ramali musammani mahzuf vaznida (— V — — / — V — — / — V — — / — V — —) yozilgan boʻlib, shoir “egler beni” soʻzini radif sifatida qoʻllaydi.

Sâkiyâ sanma şarâb-ı hoş-güvâr egler beni,

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Bezm-i ʻışk içre hayâl-i laʼl-i yâr egler beni...

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Lâmiʼî ser-menzil-i fülk-i fenâdur maksadum,

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Vâh kim pâ-bend oldı kayd u kâr egler beni.

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Gʻazal 8 bayt, 16 misrani tashkil etib, boshqa gʻazallardan farqli ravishda bu gʻazalning maqtaʼ qismida Lamii oʻz taxallusini qoʻllaydi.

Doston tarkibida keluvchi yettinchi gʻazal masnaviyning XLIII bobidan oʻrin egallagan boʻlib, bu bob Farhodning Salosil gʻoridagi qiyinchiliklari, Shirinning hajrida ozor chekib nola qilgani zikriga bagʻishlangan boʻlib, shoir bu bobda qahramonning lirik kechinmalarini ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan 7 baytli “agʻlar bana” radifli gʻazalida tasvirlaydi.

Ïy perî kan yaşûm içün ins ü cân aglar baña

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Acıyup deryâ gibi çeşm-i cihân aglar baña

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Ne ola cânım zahmına rahm eyleseñ bir gün diyüp

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Ki ol garîb üftâde hâlin her zemân aglar baña

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Masnaviy tarkibidan oʻrin egallagan sakkizinchi gʻazal ramali musammani mahzuf (— V — — / — V — — / — V — — / — V — —) vaznida boʻlib, 5 baytni tashkil qiladi. XLIV bobdan olingan bu gʻazalda Farhodning hayot ekanligidan xabar topgan Shirinning unga joʻnatgan maktubiga Farhodning javobi lirik koʻrinishda aks etgan.

Nâme ki ol cândan gelür menşûr-ı ikbâlümdür ol

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Mihr-i mühri levh-i dilde nakş-ı âmâlümdür ol

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Kurʼa-i devlet gibi tûmârı üzre yazılan

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Hatır-ı dil-bestemi açmag içün fâlümdür ol...

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Ïy sabâ gül gibi aç bu nâfe-i ser-besteyi

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Kim ezelden dilde ‘ukdem cânda eşkâlümdür ol

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Yuqoridagi bobdan soʻng shakl saqlangan holatda, yaʼni ramali musammani mahzuf (— V — — / — V — — / — V — — / — V — —) koʻrinishida 7 baytli yana bir gʻazal keltirilgan boʻlib, u dostonidagi sakkizinchi gʻazal hisoblanadi. Unda Shirinning xatini

o'qigan oshiqning hushdan ayrilishi, Farhodning javob xati xususida so'z boradi. G'azal hasbi hol ko'rinishda bo'lib unda oshiqning holati o'z tilidan keltirilgan.

Gün yüzün hicriyle mâhum gicedür gündüz başa

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Veh niçe bî-tâli'am açmaz sitârem yüz başa...

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

İşidüp ben bülbülün feryâdını şeb-tâ-seher

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Gül kulag olmuş durur bâg içre nerges göz başa

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Hasretünden iy saçı ve'l-leyli yüzi ve'd-duhâ

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Âh kim oldı berâber gice vü gündüz başa

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Lamii ijodidan o'rin egallagan so'nggi o'ninchi g'azal dostonning XLVI bobidan o'rin egallagan bo'lib, unda Farhodning maktubini o'qigan Shirinning iztiroblari haqida so'z boradi. G'azal mujtassi musammani maxbuni mahzuf (ruklari va taqti': mafoilun failotun mafoilun failun V—V—/VV— —/ V—V—/VV—) vaznida yozilgan bo'lib, 9 bayt 18 misrani tashkil etadi. Bu g'azal o'zidan avvalgi ak-sariyat g'azallardan maqta' qismida shoirning taxallusi qo'llanilgani bilan farq qiladi.

Gam-ı diyârı mı yâ derd-i yârı mı diyelüm

V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Firâk u hasret-i rûy-ı nigârı mı diyelüm

V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Gözün ki tâk-ı kaşunđan düşürdi câm-ı dili

V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Cefâ taşından iren inkisârı mı diyelüm...

V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Cefâ-yı zülf ü ruhından sorarsa Lâmi'î yâr

V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Firâk-ı genci mi yâ zehr-i mârı mı diyelüm

V—V—/VV— —/ V—V—/VV—

Ushbu g'azal bilan Lamii Chalabiy ijodidagi g'azal janriga oid lirik parchalar o'z nihoyasiga yetadi. Biz quyida shoir ijodida uchrovchi tarji'band janridagi lirik parchalar tahlili va ularda qo'llanilgan vazinlar xususida so'z yuritamiz.

Tarji'band bandli she'r shakllaridan biri hisoblanib, arabcha "takrorlab bog'lamoq" ma'nosini anglatadi. Adabiy istiloh sifatida

esa bir necha banddan iborat, gʻazal kabi qofiyalanadigan, birinchi bandning maqtaʼsi qolgan bandlarning soʻngida ham takrorlanadigan sheʼr turi hisoblanadi. Bandlar soʻngidagi oʻzaro qofiyalanuvchi bayt barcha tarjiʼxonalarni oʻzaro bogʻlaydi va vosila bayt deb yuritiladi. Odatda, tarjiʼbandlar har biri 5-12 baytdan iborat bir necha banddan tashkil topadigan janr boʻlib, bandlar takrorlanuvchi bayt — tarjiʼ vositasida oʻzaro bogʻlanishi sababli tarjiʼband deb yuritiladi. Keltirilgan barcha bandlarning soʻngida oʻzaro takrorlanadigan bayt bilan mazmun jihatidan uzviy bogʻlanib keladi. Tarjiʼbanddagi ushbu takrorlanadigan bayt bayt boshi deb yuritiladi. “Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy “Funun ul-balogʻa” asarida tarjiʼbandni 5 turga ajratadi:

1) har bandning qofiyasi boshqacha boʻladi, lekin bayt takrori saqlanadi;

2) barcha bandlar bir qofiyada aytilib, tarjiʼ bayti takrorlanmaydi, balki har bandning oxirida boshqa bir bayt keladi;

3) barcha bandlar, jumladan tarjiʼ baytlar ham bir qofiyada yoziladi;

4) har bir band alohida, shuningdek, tarjiʼ baytlar ham gʻazal kabi qofiyalanadi (1misrasida qofiya boʻlmaydi) va ularni jam etsa, yaxlit gʻazal koʻrinishini oladi;

5) har bir bandning ham, tarjiʼ baytning ham qofiyasi alohida-alohida boʻladi”.

Turkiy adabiyotimizda tarjiʼbandning dastlabki namunasi atoqli shoirimiz, Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning lirik devoniga 3 ta tarjiʼband kiritilgan. Biz quyida Lamii ijodidan oʻrin egallagan 1 ta tarjiʼband va tarkibband xususida soʻz yuritamiz.

Dostondagi tarjiʼband masnaviyning XXXV bobidan joy olgan boʻlib, bu bob Mehinbonuning Farhod sharafiga ziyofat bergani, Shirin qoʻlidan may ichgan Farhodning hushdan ayrilishi bayoniga bagʻishlangan. Bu bobda yuqorida tilga olganimizdek, ikkita gʻazal, masnaviy koʻrinishidagi matndan soʻng hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (— — V / V— V — / V — —) vaznida yozilgan bir tarjiʼband oʻrin egallagan. Ushbu tarjiʼband musaddas shaklida boʻlib, 9 band, 91 bayt, 182 misrani tashkil etadi.

Yârab bu ne câm-ı pür-safâdur

— — V / V— V — / V — —

Kim âyine-i Huzâ-nümâdur

— — V / V— V — / V — —

Bir cürʼası biñ hayât-ı âlem

— — V / V— V — / V — —

Bilsem bu ne çeşme-i bekâdur

— — V / V— V— / V— —

Yanında güneş serâb-ı bî-nem

— — V / V— V— / V— —

Sâkî bu ne od sıfatlu mâdur

— — V / V— V— / V— —

Encüm nazarında zerreden kem

— — V / V— V— / V— —

Her pertevi Şemsi Ve'dduhâdur...

— — V / V— V— / V— —

İy gûşe-be-gûşe isteyen var

— — V / V— V— / V— —

Cân dîdesin aç senüñledür yâr

— — V / V— V— / V— —

Lamii dostonidan o'rin egallagan tarkibband LII bobdan o'rin egallagan. Bu bobda Shirinning Farhod ishqida jon bergani, buni bilgani Mehinbonuning hayotdan ko'z yumishi bilan bog'liq tasvirlar keltirilgan bo'lib, ushbu tarji'band marsiya xarakteriga ega. Muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf (— — V / — V— V / V— — V / — V—) vaznida yozilgan ushbu tarji'band 144 misra, 72 baytni tashkil qiladi. Bu tarji'band 9 bandni o'zida mujassam etgan.

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy o'zining "Funun ul-balog'a" asarida tarji'band xususida so'z yuritarkan, uning bir nechta turlariga to'xtaladi, xususan, tarji'bandning to'rtinchi turi haqida so'z yuritib, unda takrorlanib keluvchi baytning mavjud emasligi, bunday tarji'bandda har band oxirida boshqa-boshqa bayt kelishi va ularning har birida qofiyaning bir xil kelishi aytilgan. Agar qofiyasi takrorlanuvchi baytlarni bir etsa, bir band bo'lishini ta'kidlaydi.

Mülk-i cihân ki hâsılı bâd-ı hevâ-y-imîş

— — V / — V— V / V— — V / — V—

Seyl-i fenâ yüzinde yapılmış binâ-y-imîş

— — V / — V— V / V— — V / — V—

Ol şeh kanı ki s âyesi gerdû n -pen âh idi

— — V / — V— V / V— — V / — V—

Ba htı dira htı ' âleme h o ş tekye - g âh idi...

— — V / — V— V / V— — V / — V—

Bu derd kana boyadı ru h s ârını gülün

— — V / — V— V / V— — V / — V—

Bu gamdan irdi göklere fery âdı bülbülün...

— — V / — V— V / V— — V / — V—

Kanı şu verd -i t âze ki anı bâg - b â n -ı devr

— — V / — V — V / V — — V / — V —

Hû n - ı cigerle bisler idi s âl ü m âhidi...

— — V / — V — V / V — — V / — V —

Ahamiyatli jihati shundaki, Ahmad Taroziy va Lamii Chalabiy tarji’band sifatida e’tirof etgan lirik parchani biz bugungi adabiyotshunoslikda tarkibband sifatida o’rganamiz. “Tarkibband “biriktirib bog’lamoq” ma’nosini bildirib, qofiyalanish tizimi va hajmiga ko’ra tarji’bandga yaqin turadi. Faqat undan farqli o’laroq tarkibbandda har bandning maqta’si o’zaro qofiyalanuvchi va bir-birini takrorlamaydigan mustaqil baytlardan iborat bo’ladi” [Sirojiddinov, 2018, 300].

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Lamiida Navoiydan farqli ravishda g’azal, tarji’band, tarkibband, qasida janrlaridagi lirik parchalar mavjud. Turk shoiri ijodi-da janrlar takomili va vaznlar xilma-xilligi kuzatilgan. Alisher Navoiyda salaflarga ergashgan holatda vaznlar an’anaviy ko’rinishda bo’lib, o’zgarishlar va turli vaznlardan foydalanish o’rinlari mavjud emas. Masnaviy to’liq musaddas shaklida yozilgan. Lamii Chalabiyda esa vaznlar aralash holatda kelgan hazaj, ramal, mujtass, muzori bahrlari barobar qo’llanilgan. Qasidalar kelgan o’rinlarda vazn va shakl o’zgargan, ya’ni musamman shaklda poetik fikr ifodalangan. Dostonning hajmi Navoiy va Lamiyda bir xil 54 bobni tashkil qiladi, lekin baytlar soni Lamiida 2365 bayt ko’proq bo’lib, asarning kirish qismidagi qasidalar, asosiy qismidagi g’azal, tarji’band, tarkibband hisobiga hajm ortgan. Turkiy dunyoning ikki zabardast vakili mumtoz adabiyotning “Xamsa” asarini yaratar ekan salaflarga ergashadi, Navoiy syujetda Xusravni Farhodga almashtirib, voqealar rivojida tub burilishlar yasasa, Lamii Chalabiy janrlarda o’ziga xos shakllardan foydalanadi. Bu xamsanavislikning tadriji va yangi ko’rinishi sifatida fanning dolzarb va qiziqarli tomonlarini ochishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu kabi tahlillar, qiyosiy yondashuvlar zamonaviy navoiyshunoslikning rivojiga o’z hissasini qo’shadi.

Adabiyotlar

- Farhod va Shirin. 2020. Doston. Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi.
- Hasan Ali Esir, Lâmiî Çelebi. 2017 Ferhâd ile Şîrîn. Ankara
- Agâh Sırrı Levend (1965). “Lâmiî’nin Ferhâd u Şîrîn’i”. Türk Dili Araştırma Yıllığı/Belleten (1964’ten Ayrıbasım): Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.

- Sirojiddinov Sh, Yusupova D. 2018. Navoiyshunoslik. Toshkent, Tamaddun. T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Kütüphaneler ve Yayımlar Genel Müdürlüğü. 2017. Ferhâd ile Şîrîn. Ankar.
- “Bursalı Lâmiî Çelebi’nin Ferhâd u Şîrîn’inin Ali Şîr Nevaî’nin Ferhâd u Şîrîn’i ile Mukayesesî». İstanbul Üniversitesi edebiyat Fakültesi Türk Dili ve edebiyatı Dergisi (Prof. Dr. Kemâl YaVUZ Özel Sayısı) 50: 39-64.
- Эркинов С. 1986. “Хамса” анъаналари//Алишер Навоий “Хамса”си. Тадқиқотлар // Тошкент, Фан.
- Юсупова Д. 2011. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Тошкент, “MUMTOZ SO‘Z”.
- Эркинов Содирхон. 1971. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили”. Toshkent, “Фан”.
- Қаюмов А. 2014. Ўзбек хамсашунослигининг адабий илдизлари // Ўзбекадабиётшунослигидаталқинватаҳлилмуаммолари. Илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент. – Б.10-12.
- Yusupova, D. (2022). « Xamsa» dostonlarini o ‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish (“Farhod va Shirin” misolida). *Uzbekistan: Language and Culture*, 1(1).
- ATAMAN, Kemal Yavuz, and Dilnavoz YUSUPOVA. “GLOBAL/KÜRESEL ŞAHSİYET OLARAK ALİ ŞİR NEVÂÎ.” *Alisher Navo’i and 21 st century* 1.1 (2024).
- Юсупова,Д.(2016).Ўзбекмумтозвამиллийуйғонишадабиёти.Алишер Навоий даври. Т:“Тамаддун”-2016.
- Jabborov, N. (2024). Artistic Interpretation of the Futuvvat Idea in Alisher Navoi’s Works. SPAST Reports, 1(1).

Genre Evolution in the Epics of “Farkhod and Shirin”

Ruzmetov Shahzodbek¹

Abstract

In our classical literature, the science of poetics acquires special importance and occupies a significant place as the main object of analysis and interpretation. This article compares two major works of Turkic literature – the epics “Farhad and Shirin” by Alisher Navoi and Lamia Chalabi. The opinions of scientists, who have worked on the genesis of Farhad’s image and research conducted in Navoi science, were studied and analyzed.

¹ Ruzmetov Shahzodbek Ulugbekovich – Tashkent economical and pedagogical institute.

E-mail: Shahruzmetov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-1277-7283

For citation: Ruzmetov, Sh. 2024. “Genre Evolution in the Epics of “Farkhad and Shirin”. *Uzbekistan: Language and Culture*. 1(2): 138-151.

Lyrical genres in the epic "Farhad and Shirin" the Ottoman Turkish poet Lamia Chalabi that differs in form from Masnavi's of Navoi, is considered in terms of poetic weight and shape, while analyzing different places. As a result of the comparisons, the peculiarities of the composition of epics, the images of heroes, the questions of the originality of the varieties of poetry in the expression of events are revealed. The similarities and differences in the approach of both authors to the topic are showed. The issues of artistic craftsmanship, the architectonics of the work, as well as the creativity of the creators in terms of volume, have been studied comparatively, and scientific conclusions have been concluded.

Key words: *poetics, poetic weight, Genesis, plot, image, lyrical genre, composition, Ramal, khazaj, mujtass, muzori, Hasbi khol, qasida, Gazelle, tarji'band, tarikhband.*

References

- Farhod va Shirin. 2020. Doston. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi.
- Hasan Ali Esir, Lâmiî Çelebi. 2017 Ferhâd ile Şîrîn. Ankara
- Agâh Sırrı Levend (1965). "Lamiî'nin Ferhâd u Şîrîn'i". Türk Dili Araştırma Yıllığı Belleten (1964'ten Ayırabası): Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.
- Sirojiddinov Sh, Yusupova D. 2018. Navoiyshunoslik. Toshkent, Tamaddun. T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Kütüphaneler ve Yayımlar Genel Müdürlüğü.
2017. Ferhâd ile Şîrîn. Ankar.
- "Bursalı Lâmiî Çelebi'nin Ferhâd u Şîrîn'inin Ali Şîr Nevaî'nin Ferhâd u Şîrîn'i ile Mukayesesi». İstanbul Üniversitesi edebiyat Fakültesi Türk Dili ve edebiyatı Dergisi (Prof. Dr. Kemâl YaVUZ Özel Sayısı) 50: 39-64.
- Erkinov S. 1986. "Xamsa" an'analari // Alisher Navoiy "Xamsa" si. Tadqiqotlar // Toshkent, Fan.
- Yusupova D. 2011. Alisher Navoiy "Xamsa" sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi. Toshkent, "MUMTOZ SO'Z".
- Erkinov Sodirxon. 1971. Navoiy "Farhod va Shirin" i va uning qiyosiy tahlili". Toshkent, "Fan".
- Qayumov A. 2014. O'zbek xamsashunosligining adabiy ildizlari // O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari. Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent. – B.10-12.
- Yusupova, D. (2022). " Xamsa" dostonlarini o 'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida). *Uzbekistan: Language and Culture*, 1(1).
- ATAMAN, Kemal Yavuz, and Dilnavoz YUSUPOVA. "GLOBAL/KÜRESEL ŞAHSİYET OLARAK ALİ ŞİR NEVÂÎ." *Alisher Navo'i and 21 st century* 1.1 (2024).
- Юсупова, Д. (2016). Ўзбек мумтоз ва миллий уйғонишадабиёти. *Алишер Навоий даври*. Т: "Тамаддун" - 2016.
- Jabborov, N. (2024). Artistic Interpretation of the Futuvvat Idea in Alisher Navoi's Works. SPAST Reports, 1(1).